

THE ROLE OF GENRE AND STYLE IN THE PROCESS OF CONTEXTUAL IMPACT

Nargiza Abdukakharovna MIRZAEVA

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Department of Uzbek language and literature
University of Journalism
and Mass Communications of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

KONTEKSTUAL TA'SIR QILISH JARAYONIDA JANR VA USLUBNING O'RNI

Nargiza Abdukaxarovna MIRZAYEVA

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbek tili va adabiyoti kafedrası
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

РОЛЬ ЖАНРА И СТИЛЯ В ПРОЦЕССЕ КОНТЕКСТУАЛЬНОГО ВОЗДЕЙСТВИЯ

Наргиза Абдукахаровна МИРЗАЕВА

Доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Кафедра узбекского языка и литературы
Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
Ташкент, Узбекистан nargizamirzaeva465@gmail.com

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Mirzayeva N.A. Kontekstual ta'sir qilish jarayonida janr va uslubning o'rne.// O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2024. — 10-jild, № 5. — B. 51-70.

<https://doi.org/10.36078/1732776938>

Received: August 10, 2024

Accepted: October 17, 2024

Published: October 20, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Abstract. Text as a product of a certain social phenomenon and experience has become the main object of research in linguistics. The study attempts to study the features and requirements of media texts through the analysis of children's publication materials. The purpose of the research is to reveal the communicative and contextual features of children's journalism in Uzbekistan, to show the advantages of the communicative-pragmatic approach in journalistic works aimed at the children's audience, investigate the methods of contextual communication. The article presents methods, techniques for enhancing the communicative impact of children's journalism publications, professional development for media professionals specializing in children's topics, lectures and practical classes on the topic of the article, teaching materials, practical results of preparing materials for professional development courses for journalists. The scientific novelty of the article is based on the effectiveness of creating a special information space that expresses the specific features of the cognitive, developmental, educational, upbringing, intellectual and creative potential of children's development, relating to each period, while strengthening the communicative impact of the content and its presentation in the materials intended for the children's audience. its presentation in the materials intended for the children's audience.

Keywords: mass communication; children's journalism; contextual; genre; style; extralinguistics.

Annotatsiya. Hozirgi paytda matn muayyan ijtimoiy hodisa va tajriba mahsuli sifatida tilshunoslikning asosiy tadqiqot obyektiga aylangan.

Aynan matnning kommunikatsiya jarayoniga ta'siri masalasi haligacha chuqur va yetarlicha tadqiq etilmagan. Biz bolalar nashrlaridagi materiallar matni tahlili orqali mediamatnlarning o'ziga xos xususiyatlari va talablarini o'rganishga harakat qildik. Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda bolalar jurnalistikasining kommunikativ va kontekstual xususiyatlarini ochib berish, bolalar auditoriyasiga mo'ljallangan jurnalistik asarlarda kommunikativ-pragmatik yondashuvning afzalliklarini ko'rsatish, kontekstual aloqadorlik uslublarini tadqiq etishdan iborat. Maqolada bolalar jurnalistikasi nashrlarining kommunikativ ta'sirini kuchaytirish usullari, uslublari bolalar mavzulariga ixtisoslashgan ommaviy axborot vositalari mutaxassislarining malakasini oshirish, maqola mavzusi bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, jurnalistlar malaka oshirish kurslari uchun materiallar tayyorlashga oid amaliy natijalar ko'rsatilgan. Maqolaning ilmiy yangiligini kontentning kommunikativ ta'sirini kuchaytirish va uni bolalar auditoriyasi uchun mo'ljallangan materiallarda taqdim etishda bolalar rivojlanishining har bir davrga taalluqli o'ziga xos kognitiv, rivojlantiruvchi, ta'limiy, tarbiyaviy, intellektual va ijodkorlik salohiyatini shakllantiruvchi xususiyatlarni ifoda etuvchi maxsus axborot makonini yaratish samaradorligiga asoslangani tashkil etadi.

Kalit so'zlar: ommaviy kommunikatsiya; bolalar jurnalistikasi; kontekstual; janr; uslub; ekstralingvistika.

Аннотация. В настоящее время текст как продукт определенного социального явления и опыта стал основным объектом исследования в лингвистике. Именно вопрос влияния текста на процесс коммуникации до сих пор глубоко и недостаточно изучен. Мы попытались изучить особенности и требования медиатекстов посредством анализа текста материалов детских изданий. Целью исследования является раскрытие коммуникативных и контекстуальных особенностей детской журналистики в Узбекистане, показать преимущества коммуникативно-прагматического подхода в журналистских произведениях, ориентированных на детскую аудиторию, исследовать методы контекстуального общения. В статье представлены методы, приемы повышения коммуникативного воздействия изданий детской журналистики. Научная новизна статьи основана на эффективности создания специального информационного пространства, выражающего специфические особенности когнитивного, развивающего, образовательного, воспитательного, интеллектуального и творческого потенциала детей, относящиеся к каждому периоду взросления, при усилении коммуникативного воздействия контента и его представлении в материалах, предназначенных для детской аудитории.

Ключевые слова: массовая коммуникация; детская журналистика; контекстуальный; жанр; стиль; экстралингвистика.

Kirish

Ommaviy kommunikatsiya o'ziga xos tarixiy-ijtimoiy asoslari va an'analarga, axboriy ko'lam va uni uyushtirish, uzatish shakllari hamda qonuniyatlariga ega. Uning kontekstual kompozitsiyasi turli janrlar bilan uzviy bog'liq. Zero, har qanday nutq uslubi muayyan janrlarda ifodalanadi. Jurnalist dolzarb mavzuni tanlash, ishonchli faktlarni topish va qayta ishlash jarayonida mos ifoda shaklini ham tanlaydi. Ushbu tanlangan shakl

janr hisoblanib, bu jarayon ham jurnalist mahoratiga bog'liq, chunki nutqning ifoda qurilishi (kompozitsiya) asosiy maqsadni o'ziga xos tarzda rejalashtirish va boshqarish tizimi vazifasini o'taydi. Kompozitsiya bu — matn arxitekturasi bo'lib, uning boshqaruvida matnni nimadan boshlash va nima bilan tugatish, uni qanday qismlarga bo'lish, o'quvchiga nima haqida darhol xabar berish, keyin nima haqida, kimning nomidan (yoki kimning nuqtayi nazaridan) hikoya qilish va hokazolar kabi masalalar mavjud.

Kompozitsiya matnni tashkil etish vositasi bo'lib, yordamchi mavzular (kompozitsion tugunlar) birikmasi nuqtayi nazaridan uni tuzish qoidalari tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Jurnalistika matnida zarur va yetarli miqdordagi yordamchi mavzular prinsipial ravishda to'rtta mavzuga qisqartirilishi kerak:

- 1) vaziyatga kirishish;
- 2) muammoni belgilash;
- 3) baho va dalillarni taqdim etish;
- 4) masalaning amaliy qo'yilishi (4).

Matnning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: mustaqillik, maqsadlilik, yaxlitlik. Har qanday asarga kompozitsiya xosdir. Kompozitsiya — nutq tarkibiy qismlarining joylashish ketma-ketligi. Kontekst kompozitsiyasini his eta olish — sarlavhadan tortib matn yakunigacha uni o'quvchi nuqtayi nazaridan turib fahmlay olish malakasi jurnalist mahoratini belgilaydi. Jurnalist mahoratiga: matnga mazmun yuklash, zarur o'rinda kengaytirish yoki qisqartirish, o'rini almashtirish yoki qayta tarkiblash, shuningdek, ajratish, bo'laklash orqali qayd etish va ta'kidlash kiradi.

Janrlar tasnifi asosida ularning matn tarkibidagi o'ziga xoslik yotadi. Demak, muayyan janrdagi axborot ommaviy kommunikatsiya doirasida alohida xususiyatlarga ega bo'lgan jurnalist ijodining alohida bir turi hisoblanadi. Janr tahlili shakl orqali mazmunni tushunish demakdir (1, 89).

Bolalar matbuoti materiallari, boshqa ijod namunalari singari tuzilishi, mazmun-mohiyati, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, ijtimoiy tadqiqot obyektiga ko'ra muayyan janrlarga bo'linadi. Bolalar nashrlaridagi janrlarning xilma-xilligini farqlash nafaqat ijodkor uchun, balki uni o'qib-o'rganuvchilar uchun ham muhimdir. Bolalar matbuoti bir butun janriy tizim sifatida shakllangan. Aynan uning tabiati, ichki shakllariga xos belgilarini aniqlash tili va uslubiga oid o'ziga xosliklarini tadqiq etish imkoniyatini tug'diradi. Zero, bolalar publitsistikasi: xat, xabar, lavha, suhbat, intervyu, reportaj, taqriz singari axborot beruvchi; tahliliy xususiyatga ega maqola, ocherk, felyeton, esse, badiya kabi badiiy-publitsistik janrlardan tashkil topgan yaxlit tizimdan iboratdir (2, 32).

O'zbekistonda bolalar publitsistikasi, ularning kontekstual ta'sir qilish jarayonida janr va uslubning o'zni mavzusida B. Do'stqorayev (6), N. Abduazizova (1), Y. Mamatova, M. Xudoyqulov, N. Qosimova (16), N. Toshpo'latova (15), N. B. Abdullayeva (2), B. Jamilova (10), M. Yunusov (27) tadqiqot olib borgan. O'zbek bolalar adabiyoti, she'riyati bo'yicha R. Barakayev (3), K. Turdiyeva (26), A. Suyumov, M. Jumaboyev (21), N. To'xtayevaning ilmiy izlanishlari e'tiborga molik. Shuningdek, M. Qurbonova (18) tomonidan bolalar psixologiyasi va nutqiga oid tadqiqotlar amalga oshirilgan.

MDH davlatlarida ixtisoslashgan matbuotning jurnalistikada tutgan o'рни, bolalar nashri, tasnifi, dizayni, bolalar jurnallarining tayyorlanish jarayoni, ularning yoshlar auditoriyasiga ta'siri mavzusida umumlashtirilgan tadqiqotlar V. V. Voroshilov (4), D. A. Jukova (9), D. P. Zilevich, N. N. Svetlovskaya (22), P. I. Chukov (30), A. G. Kogatko (13), S. V. Frolova (7) kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Xorijda bolalar jurnalistikasi bilan bog'liq masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar Sharon R. Mazzearella, D. Abrahamson (5), Marcia R. Prior-Miller, S. Judith (11), S. Jackson, J. Low, S. Gee, C. Butle tomonidan olib borilgan.

Har bir janrning vazifasi va imkoniyatlarini bilish hamda ularga ijodiy yondashish ommaviy kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashga, kontekstual ta'sir qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan janrga jiddiy e'tibor berish lozim.

Ommaviy muloqot janrlarining bir-biriga ta'siri, o'zaro aralashuv jarayoni esa, mazmun o'zgarishlariga, nutq shaklining qonuniy muvofiqlashuviga, shuningdek, jurnalistning ijodga mahorat bilan kirishishiga bog'liq.

Asosiy qism

Bolalar matbuoti nashrlarida yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol tarbiyalashga xizmat qiladigan publitsistik janrdagi materiallarga bugungi kunda ehtiyoj katta.

Tele- va radiopublitsistikaning bolalarga mo'ljallangan yo'nalishi ham mavjud. XX asr oxirida bolalar uchun beriladigan maxsus ko'rsatuv va eshittirishlar keng ommalasha boshladi. Tarbiyaviy ahamiyati, hayotiyligi, qiziqarli va kreativligi bilan "Multkarusel", "Oqshom ertaklari", "Ertaklar – yaxshilikka yetaklar", "Umid uchqunlari" ("O'zbekiston" telekanali), "O, yoshligim", "Sinf dosh", "Qishloqdagi tengdoshim", "Zakovat", "Qorachiq" ("Yoshlar"), "Birgalikda kuylaymiz" ("Toshkent"), "Quvnoq startlar", "Bolalar sporti", "Shaxmatni o'rganamiz" ("Sport") kabi ko'rsatuvlar o'z auditoriyasiga ega bo'ldi. Hozirgi kunda O'zMTRKda "Bolajon", "Aqlvoy" telekanallari, "O'zbekiston" telekanalidagi "Shumtakalar" ko'rsatuvi, "Yoshlar" telekanalida "Do-mi-sol", "Katta tanaffus", nodavlat telekanallarda "Bola tilidan", "Joziba kids", O'zbekiston radiosining "Bolalar va biz" eshittirishlari shunday xarakterga ega.

Bolalar jurnalistikasining yana bir muhim tarmog'i — kinopublitsistika. Keyingi yillarda hujjatli filmlarga qiziqish tobora ortib bormoqda. Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar, o'zgarishlar, global muammolarga bag'ishlangan mavzular hujjatli kino ijodkorlarining diqqat markazidagi dolzarb mavzulardandir. "Favvora-film" xususiy kinostudiyasi ijodiy jamoasi (rejissyor Hojimurod Valiyev) tomonidan suratga olingan "Bag'rikeng Toshkent" hujjatli filmi bolalarga xalqimiz mentalitetiga xos mehr-oqibat, ezgulik, Vatanga sadoqat bilan xizmat qilish, bir burda nonini ham muhtojlar bilan baham ko'rish singari fazilatlarini singdiradi.

Shonli tariximizdan hikoya qiluvchi “Xalq jasorati” deb nomlangan hujjatli kinoxronika yaqin o‘tmishni unutishga mahkum qilingan yoshlar ongidagi bo‘shliqni to‘ldirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur hujjatli film tariximizning unutilayotgan ibratli tomonlarini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi. Bu kabi filmlar chinakam vatanparvarlarni tarbiyalaydi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bolalar nashrlaridagi ekstralingvistik vositalar: rasm, komiks va suratlar ham ma‘lum ma‘noda publitsistik mohiyat kasb etadi. Chunki ular ijtimoiy hayot, turmush tarzi haqida mushohada yuritishga da‘vat etib, o‘z o‘rnida rasm publitsistikasini tashkil etadi. Bunday vositalar deyarli har bir gazeta va jurnallarda uchraydi (14, 108). Illyustratsiya — qo‘shimcha matnsiz ma‘lumot yoki hali o‘qishni bilmaydigan bola har qanday hikoyaning mazmunini bilib oladigan maxsus turdagi mediamatn. Bolalar kreol mediamatni bolalar jurnalistikasidagi matnning verbal va noverbal tarkibiy qismlarining birikmasi bo‘lib, u ommaviy axborot vositalarining konvergentsiyasi, yangi texnologiyalar va dizaynning rivojlanishi natijasida shakllangan (32).

“Kreolizatsiyalangan matn” atamasi birinchi marta Y. F. Tarasov va Y. A. Sorokin tomonidan “Kreolizatsiyalangan matnlar va ularning kommunikativ funksiyasi” maqolasida kiritilgan: “bu fakturasi ikkita bir xil bo‘lmagan qismdan iborat bo‘lgan matnlar (verbal til (nutq) va noverbal (tabiiy tildan boshqa belgilar tizimiga tegishli))” (12, 41).

“Rasm publitsistikasining yana bir jihati shundaki, unda aytilmoqchi bo‘lgan voqea-hodisa, g‘oya va mulohaza bolalar ko‘z o‘ngida yaxlit bir hodisa tasviri sifatida gavdalanib, muayyan tasavvur hosil qiladi” (8, 34). Bu borada tadqiqotchi B. Jamilova o‘z ilmiy ishida shunday yozadi: “Bolalar uchun keng tarqalgan ijtimoiy-badiiy nashrlardagi turli rasm va suratlar ham publitsistik mohiyat kasb etib, hayot, turmush haqida mushohada yuritishga da‘vat etadiki, ularni rasm-publitsistika sifatida talqin etish maqsadga muvofiq” (8, 34). Bunda bolalar ijodkorligi alohida ahamiyatga ega. “Tong yulduzi” gazetasi, “G‘uncha”, “Gulxan”, “Dono word”, “Jajji akademik” jurnallaridagi bolalar chizgan rasm va tushirgan suratlar fikrimizga dalildir. Chunonchi, “Gulxan” jurnalining doimiy “Galereya” ruknida e‘lon qilinayotgan bolalar ijodiga mansub rasmlari ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy mazmunga ega. Bu jihatdan jurnalning 2017-yilgi sonida bosilgan “Alla” deb nomlangan rasm diqqatga sazovordir. Qashqadaryo viloyati, Kitob tumani 79-maktab o‘quvchisi Sevinch Mahmayusupova chizgan bu rasmda milliy qadriyatlarimiz — farzandiga alla aytayotgan ona timsoli aks etgan.

“Tong yulduzi” gazetasining 2018-yil 14-may sonida Namangan viloyati Namangan tumanidagi 18-umumta‘lim maktabining 7-sinf o‘quvchisi Xadicha Yoqubjonovanning “Toza havoning qadriga yeting” deb nomlangan rasmda ham ekologik muammo tasvirlangan. Unda korxonalaridan chiqayotgan zaharli tutunlar havoni zaharlayotgani, quvurlardan oqayotgan oqovalar toza, tiniq suvlarni bulg‘ayotgani aks etgan.

Tabiiyki, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy voqealarni bolalarga shu tarzda tushuntira bilish, bu voqealar haqida ularda tasavvur uyg‘otish ijodkordan alohida mahoratni talab qiladi. Bundan tashqari, tanqidiy va tahliliy mulohazalarni karikatura, hajviy (yumor) rasmlar bilan birga

berish jurnallarga xos xarakterli jihatdir. O'qish va yozishni hali to'la bilmaydigan bolalar esa ayrim voqea-hodisalarni rasmlar orqali bemalol tushunib oladi. Bunday rasmlar, asosan, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallanadi.

Rasm-publitsistika qamrovi kengligi, aniq tasavvur uyg'otishi jihatidan karikatura va hajviy suratlardan farq qiladi. Umuman, bolalar matbuotida bunday ko'rinish va shakldagi materiallar talaygina. Ular alohida tadqiqot obyekti sifatida muhim ahamiyatga ega.

Bolalar matbuoti nashrlarida e'lon qilingan materiallar alohida bir turkumni tashkil etib, ommaviylashuviga ko'ra badiiy adabiyotga tengdir. Bular sirasiga kitoblar, turli risola hamda nashr etilgan publitsistik hikoya, esse, ocherk, felyeton, badialar kiradi. Ularning aksariyatida integratsiyalashgan janrlar unsurlarini ko'rish mumkin. Masalan, "badia", "publitsistik hikoya" deb berilayotgan materiallarda maqola, xabar janri elementlari sintezlashganini ko'rish mumkin. Shunday ekan, ularni sof publitsistik asar yoki sof adabiyot namunasi sifatida emas, balki ko'proq publitsistik ruh bilan sug'orilgan asar sifatida baholash mumkin. Shu boisdan, bolalar nashrlaridagi bu kabi materiallar haqida mulohaza yuritish, ularni tahlil qilish alohida mavzu ekanligini qayd etish bilan cheklanib, tadqiqotimiz mavzusi va xarakteridan kelib chiqib, ishda, asosan, bolalar nashrlaridagi materiallarning janriy-uslubiy xususiyatlari tadqiqiga e'tibor qaratamiz.

Bolalar matbuotida xat janriga doir materiallar alohida o'rinni egallaydi. Bolalar va o'smirlar o'zlari mutolaa qiladigan matbuot nashrlari bilan xat orqali aloqa bog'lab turadilar. Ular maslahat yoki yordam so'rab, savollariga javob olishadi, so'rov va istaklarini gazeta yoki jurnalda e'lon qilishni so'rab maktublar yo'llashadi. Bu maktublarda bolalarning samimiy, oddiy savollari va beg'ubor istaklari bayon qilingan bo'ladi.

"Tong yulduzi" gazetasining 2016-yilgi 3-sonidan birida berilgan "Savodxon qiz maktubi" sarlavhali materialda gazetaxonning maktubi aynan qo'lyozma tarzida e'lon qilingan. Maktub muallifi 1-sinf o'quvchisi E'zoza Ilhomovanning xati gazeta xodimlariga ma'qul bo'lgan. Tahririyat endigina savodi chiqqan qizaloqning maktubi imloviy xatolarsiz, chiroyli husnixat bilan yozilganini ta'kidlagan.

Shunday qo'lyozma tarzidagi maktublar boshqa bolalar nashrlarida deyarli uchramaydi. Gazetaning 33-sonida ham 7-sinf o'quvchisi Soliha Murtozoqulovanning maktubi e'lon qilingan. Maktubda Soliha "Tong yulduzi"ning biror-bir sonini qoldirmay o'qishini, unda e'lon qilingan "Sog'lom bola – boy bola" tanlovida ishtirok etishini bildirgan.

Gazetaning shu yilgi sonlarida "Bizga maktub yo'llabsiz" rukni ostida gazeta o'quvchilari yo'llagan maktublar e'lon qilingan. Jumladan, "Sevimli nashrimiz bilan birgamiz" (Tong yulduzi, 2016-yil 15-fevral) sarlavhali maktub muallifi "Tong yulduzi" gazetasining doimiy o'quvchisi ekani, gazetada berib borilayotgan har bir maqola, hikoyalar, shuningdek, turli mavzudagi boshqotirmalar, ingliz tili saboqlarini qiziqib o'rganayotganini ta'kidlagan. Gazetaning mazkur sonida bir necha muallifning xabar tarzidagi maktublari e'lon qilingan. "Hech kim mehr va e'tibordan chetda qolmasin", "Yurt kelajagi — yoshlar qo'lida", "Keling, choy ichamiz!" (Tong yulduzi, 2016-yil 20-iyun) sarlavhali maktublarda, asosan, ijtimoiy voqealarga doir axborotlar berilgan.

Gazeta tahririyatiga keladigan maktublarda nafaqat dil izhorlari, gazeta haqidagi fikrlari, balki gazeta sahifalarida e'lon qilingan turli tanlovlarda ishtirok etish istagi, tanlovga yuborilgan materiallar e'lon qilinadi. Masalan, gazetaning 2017-yil 6-sonida "Jannat onalar oyog'i ostidadir", "Men — yosh vatanparvar" tanlovlariga yuborilgan "Dilimiz quvonchi", "Bir maqsad yo'lida" sarlavhali materiallar shular jumlasidan.

Xat shakli o'quvchiga gazetani o'ziga yaqin do'st bilib, maslakdosh sifatida qarab, dildan yozish imkoniyatini beradi. Bunda, albatta, tabiiy, samimiy talqinlar yetakchilik qiladi.

Xat janri uslubida yozilgan maktublarni nafaqat "Tong yulduzi" gazetasi sahifalarida, balki "G'uncha", "Gulxan" jurnallarida ham kuzatish mumkin. "G'uncha" jurnalining 4-sonida "Ustoz maktubi" rukni ostida "G'unchasevarlar" sarlavhali maktub e'lon qilingan. Bu maktubni bolajon-o'quvchi emas, balki uning ustozlari yozgan. Unda o'zining o'quvchilari "G'uncha" sahifalarini o'qib, undagi she'rlarni yod olishlari, ertak va hikoyalarni darsdan tashqari mutolaa qilishlarini bayon qilgan. Bunday maktublar jurnal tahririyati xodimlariga murojaat sifatida emas, balki bevosita "G'uncha"ga yozilgan. Xat janridagi materiallarning bu tarzda berilishi jurnalning o'ziga xos uslubi sanaladi. Jurnalda e'lon qilingan (G'uncha, 2016-yil, 4-son) bu turkum maktublar juda qisqa, sodda iboralardan iborat. "Men Umarov Muhammadsaid bo'laman. Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 277-maktabning 3-"B" sinfida o'qiyman. Barchamiz senga 2016-yil uchun obuna bo'lganmiz. Tanlov haqida eshitib, "Oyim va ukam" rasmini chizib yubordim". Ushbu maktub kichik yoshdagi o'quvchi tomonidan yuborilgan. Maktub matni atigi to'rtta sodda gapdan iborat. Bundan ko'rinib turibdiki, "G'uncha" jurnalida e'lon qilinadigan xat uslubidagi materiallar "Tong yulduzi" gazetasidagi maktublar matniga qaraganda ancha sodda va ixchamligi bilan farq qiladi.

Sir emas, xat va maktublarning aksariyatini tahririyat xodimlari, yetuk jurnalistlar qayta ishlab, tahrir qiladi. Biroq mualliflarning asosiy fikrlari saqlab qolinadi. Chunki bunday yozishmalarda yosh avlodning ruhiy kechinmalari, dunyoqarashi va voqelikka munosabati muhrlangan bo'ladi. Bu esa bolalar ijodkorlari uchun eng e'tiborga molik jihatdir. Shunday ekan, aniq hayotiy voqelikka asoslangan matbuotda jamoatchi ijodkorlar ishtiroki muhimdir.

Tahririyatga yo'llangan xatlar kommunikator uchun qanday ijod qilish: o'quvchilar qanday mavzulardagi materiallarni ko'proq o'qishni xohlashi, ularni qanday shaklda va qanday til vositalaridan foydalanib tayyorlash kerakligini aniqlab olishga yordam beradi. Chunki o'quvchilar xat orqali o'z istak va xohishlarini o'zlariga xos tarzda bitib yo'llaydilar.

Bolalar nashrlarida axboriy, tahliliy va badiiy-publitsistik janrlarga oid materiallar ham berib boriladi. Gazeta materiallarini tahlil qilar ekanmiz, unda "Tong yulduzi"ning muqovasida berilgan lavha e'tiborimizni tortdi. Gazetaning deyarli har bir sonida badiiy-publitsistik janrga oid lavha berilgan.

Gazetaning 2016-yil 11-yanvar 2-sonida berilgan 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan "Ona yurtning o'g'lonlarimiz, ko'ksi qalqon posbonlarimiz!" sarlavhali lavhada O'zbekiston Respublikasi IIV "Jar" sport-sog'lomlashtirish majmuasi qoshidagi harbiylashtirilgan maxsus maktab-internati o'quvchilarining tariximizda

o'tgan buyuk sarkardalar haqidagi fikrlari bayon etilgan. Lavhada maktab-internatda tahsil olayotganlar gazetonlarga tanishtirilgan.

Lavha oddiy xabardan farq qiladi, unda hayotdagi voqea va hodisalar kengroq tasvirlanadi, hayotdan olingan bir ko'rinishni, kishilar faoliyati haqidagi muayyan bir ma'lumotni o'quvchi ko'z o'ngida jonlantirish hamda bu haqida unda tasavvur uyg'otish ko'zda tutiladi. Gazetaning har bir soni ilk sahifasida bir yoki ikkita lavha berilgan. Aksariyat gazetalarning ilk sahifasida o'sha son anonsi yoki fotosuratlar beriladi, xolos. "Tong yulduzi"ning boshqa gazetalardan farqlanib turuvchi xususiyatlaridan biri ham shunda.

Fikrimizning isboti sifatida gazetaning 2016-yil 4-sonida berilgan lavhalarni keltirishimiz mumkin. "Qalblar ziyoga to'ldi" va "Poytaxtimizdagi "Istiqlol" san'at saroyida Respublika bolalar ijodiyoti festivali g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi" sarlavhali materiallar berilgan. Lavhalar sermazmun va fotosuratlarga boy. Ammo ikkinchi lavha sarlavhasi biroz cho'zilib ketgani bois, o'quvchining bir o'qishda fahmlab olishi qiyin. Sarlavha biroz qisqartirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Lavhada badiiy tasvirlar — tabiat manzaralari, inson faoliyati, mehnat, izlanish jarayonlari, lozim ko'rilganda inson qiyofasi va boshqa tasvirlarga o'rin beriladi. Odatda, lavha hayotning ijobiy jihatlari aks etgan va boshqalarga namuna sifatida xizmat qiladigan voqea va hodisalar, insonning yaratuvchilik faoliyati, erishgan yutuqlarini tasvirlashga bag'ishlanadi. Ayrim hollarda esa, hayotdagi kamchilik va nuqsonlarni yo'qotishga, salbiy holatlarni tanqid qilishga bag'ishlangan hajviy lavhalar ham bo'lishi mumkin.

Ommaviy axborot vositalari, xususan, radio va televideniye faoliyatda har kuni bir necha bor yangilanadigan axborot dasturlari, muhim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy mavzularning yoki jamiyatdagi ayrim muammolarning mohiyati, sabab va oqibatlarini ochishga qaratilgan tahliliy eshittirish hamda ko'rsatuvlar berib boriladi. Badiiy-publitsistik ruhdagi bunday ijod namunalari orasida intervyu eng faol janr ekanligi oydinlashadi. Zero, aynan intervyu kommunikatsiya asosidir.

Hozir bolalar matbuotida ham intervyu faol informatsion janrlar sirasidan o'rin olgan. Mazkur janrdagi asarlar bolalar nashrlarida ham berib borilishining boisi shundaki, bolalarga hayotdagi har bir fakt, voqea va hodisaning qanday ro'y bergani, tafsiloti, odatda, shu faktdan xabardor, voqea-hodisani ko'rgan-bilgan odamlardan so'rab-surishtirib boriladi, keyingina biror janrdagi matbuot materialiga asos bo'ladi. Umuman, intervyu informatsion publitsistikaning eng dolzarb, keng tarqalgan, ommabop janri hisoblanadi. Bolalar nashrlarida beriladigan intervyu matni ancha sodda, tushunarli va mavhum so'zlardan xoli bo'lishi kerak. Bu borada retsiyent va respondentning so'z tanlash mahorati, mas'uliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

"Tong yulduzi" gazetasining 2016-yil 35-sonidan birida O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist Ashurali Jo'rayevdan olingan intervyu nashr etilgan (Tong yulduzi, 2016-yil 25-aprel). Ushbu suhbatda muallif Shavkat Kazakbayevning bugungi kunda o'quvchilarni qanday qilib kitob o'qishga qiziqtirish mumkin, oilaviy kitobxonlikni rivojlantirish

choralari, bola tarbiyasida kitobning o'rni kabi savollariga respondent tomonidan to'la va aniq javob berilgan. Bu berilgan savollar aniq va sodda. Suhbat mazmunini o'quvchilar tez va oson fahmlab oladilar. Berilgan savollarda mavhum so'zlar uchramaydi.

Gazetadagi intervyular boshqa matbuot nashrlaridagi intervyularga nisbatan ancha sodda, tushunarli. Lekin respondent tomonidan berilayotgan savollarda qolip (shablon) birikmalar ko'proq qo'llanilgan. Masalan, yuqorida keltirib o'tilgan Ashurali Jo'rayev bilan intervyuda "Kompyuter o'yinlari va internetga ruju qo'yayotgan bolalarga qanday tavsiyalar berasiz?" kabi savol boshqa intervyularda ham uchraydi.

"Bolalar sporti" rukni ostida berilgan "Kasbim bilan faxrlanaman" (Tong yulduzi, 2016-yil 27-iyun) sarlavhali intervyuda muallif Sa'dullo Tursunov respondentga: "Siz kabi sport jurnalisti bo'lmoqchi bo'lgan yosh o'quvchi-qizlarga qanday tavsiyalar berasiz?" degan savol bilan murojaat qilgan. Ko'rinib turibdiki, intervyularda bunday qolip savollar uchrab turadi.

"Kitobdan yaxshi do'st bo'lmas" (Tong yulduzi, 2016-yil 4-iyul, 27-son) sarlavhali suhbatda ham muallif Shavkat Kazakbayev deyarli shunga o'xshash savollar bilan respondent "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti bosh muharriri Habib Abdiyevga murojaat qilgan. Suhbatda bolalar kitobxonligi, ularning hayotida kitobning o'rni va nashriyotda chop etilayotgan badiiy asar xususida fikr bildirilgan. Mazkur suhbatda ham "Kompyuter, uyali telefon, televizor va kitobning o'zaro munosabati borasida bolalarga qanday tavsiyalar berasiz?" degan savol berilgan. Deyarli ko'p suhbat va intervyularda shu tarzda savol bilan respondentga murojaat qilingan.

"Tong yulduzi" gazetasi sahifalarida faqat ijodkorlarning hayoti va faoliyati mavzusidagi suhbatlardan tashqari, ta'lim-tarbiya sohasining yetuk mutaxassislari bilan ham suhbatlar berilgan. Masalan, gazetaning 35-sonida "Buyuk yurtning farzandlari hamisha g'olib, deydi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Dilshod Kenjayev" sarlavhali suhbatda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, maktab ta'limini rivojlantirish, o'quvchilarning xalqaro miqyosdagi turli tanlovlarda munosib ishtiroki xususida respondentning fikrlari bayon qilingan. Biroq suhbat matni fakt va raqamlar, ma'lumotlar bilan to'ldirib yuborilgan.

Gazetaning 2017-yil 16-sonida ham ta'lim-tarbiyaga oid material bosilgan. Jurnalist Nurbek Qidiraliyevning Jizzax viloyatining XTMTMTTE bo'limi mudiri G'anisher Sherbekov bilan maktabgacha va umumta'lim muassasalarida sifatli ta'lim berish saviyasi, ta'lim samaradorligiga erishishda pedagog salohiyati va mahoratini oshirish borasidagi islohotlar haqidagi suhbat e'lon qilingan. Mazkur suhbat orqali ota-onalar, pedagoglar ta'lim-tarbiya sohasidagi yangilanishlar bilan tanishadilar.

Gazeta sahifalarida ijtimoiy-siyosiy mavzudagi suhbatlar ham berib boriladi. "Saylov — demokratiya ko'zgusi" (Tong yulduzi, 2016-yil 31-oktabr, 44-son) sarlavhali suhbatda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Otabek Abdug'aniyev mamlakatimizda o'tkaziladigan saylov, saylovda nechta siyosiy partiya o'z nomzodini qo'ygani, kimlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylanish va saylash huquqiga

ega ekanligi haqidagi fikrlari bayon etilgan. Suhbat matni o'quvchilarga sodda, xalqchil tilda hamda mavhum so'z va jumladan xoli berilgan.

Jurnalistikada janr qoidalari asarning maqsadi, yo'nalishi, tanlangan obyektning mohiyati, hayotiy fakt, hodisa va holat tahlil usuli va xulosalar miqyosi, shuningdek, kompozitsion-uslubiy xususiyatlari bilan belgilanadi, shu bois, avvalo, intervyu, xususan, matbuot intervyusi har jihatdan batafsil bo'lishi kerak. Ya'ni undan ma'lumot, tafsilot va mavzuga oid ma'lumotlarning o'zaro uyg'unligi talab etiladi. Har bir janrda bo'lganidek, intervyularda ham adabiy til me'yorlariga rioya qilish birinchi o'rinda turadi. Intervyu og'zaki nutqqa asoslangani uchun ba'zan suhbatdoshlar nutqida adabiy til me'yorlaridan chetga chiqish hollari ham uchraydi. Lekin tahrir jarayonida bunday kamchiliklarni bartaraf etish muhim sanaladi.

Matbuot intervyusining o'ziga xosligi shundaki, unda suhbatdosh intervyuyer savoliga qanday javob bermasin, jurnalist suhbat matnini qayta ishlashi, jummalarni tahrir qilishi, suhbatni mazmunan to'ldirishi mumkin. Chunki matbuot sahifalarida beriladigan intervyuni jurnalist, avvalo, o'zi uchun qayd etadi, so'ng matnni gazeta yoki jurnal ruhiga moslab qayta ishlaydi hamda o'quvchilar e'tiboriga havola qiladi. Biroq matbuotdagi intervyuni o'qigan o'quvchi uning ruhini to'la his eta olmaydi. Sababi u intervyudan bilvosita xabardor bo'ladi, suhbatdoshning ruhi, kayfiyat hamda holati haqida hech qanday ma'lumotga ega bo'lmaydi. Matbuotdagi intervyuda hatto jurnalistning savoli ham butkul o'zgartirilib berilishi mumkin. Umuman olganda, matbuotda beriladigan intervyu ijodiy asar namunasidir. Negaki, intervyuning qanday jurnalistika asari bo'lishi faqat matbuotchi jurnalistning mahorati va ijodkorligiga bog'liq. Intervyuning barcha turlari, avvalo, matbuotda yuzaga chiqib, so'ng boshqa ommaviy axborot vositalarida shakllandi. Bugungi matbuot, xususan, bolalar nashrlari sahifalarida intervyu janriga xos asarlarning ko'p uchrashi boisi ham shunda.

“Tong yulduzi” gazetasida ko'proq suhbat va intervyu janriga oid materiallar beriladi. Gazetaning 2016-yil 2-sonida “Intilish — maqsadga yetaklaydi” sarlavhali material berilgan. Poytaxtimizdagi 283-umumta'lim maktabi o'quvchisi Madina Rahmatullayeva bilan suhbat uyushtirilgan. Ushbu suhbatda muallif respondentning suxandonlik qobiliyati, adabiyot va san'atga qiziqishi haqida savollarga javob olgan.

Bolalar nashrlariga intervyu yoki suhbat materialini tayyorlashda bolalar fahmlashi uchun oson vositalardan, sodda gaplardan va ular tilida yangraydigan so'zlardan foydalanish kerak. Bolalar nashrlari orasida “Bilimdon”, “Dono word”, “Gulxan” jurnallarida ana shunday intervyularni ko'rish mumkin. “Dono word” jurnalining 2019-yilgi sonlaridan birida jurnalist Z. Bobojonovanning O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, taniqli aktyor Karim Mirhodiyev bilan intervyusi berilgan. Intervyu matni bolalar tiliga mos jumlar, ya'ni sodda gaplar, aniq va oddiy iboralardan tarkib topgan. Muxbirning: — *Karim aka, sizni ko'proq kinoaktyor sifatida yaxshi tanimiz. Teatrda faoliyatingiz bizga qiziq, yangi avlod bu haqida deyarli bilmaydi... Obrazga kirishda aqlga ko'proq tayanisizmi yoki hissiyotga?* deb berilgan savollari bir qolipdagi jo'n savollardan iborat emas. Bu savollarga berilgan javoblardan o'quvchi

aynan aktyorning ijodiy faoliyatiga oid yangiliklardan xabardor bo'ladi. Bu jihatlar suhbatning mazmunli, qiziqarli chiqishini ta'minlagan.

Shu jurnalning 18-sonida jurnalist L. Qobilovanning yosh rejissyor Asqar Xolmo'minov bilan suhbatini ham chop etilgan. Intervyuning kirish qismida san'atkorning hayoti va rejissyorlik faoliyatiga doir ma'lumotlar qisqacha bayon etilgan. Biroq respondentning javobida ham, jurnalist bergan savollarda ham uzundan-uzoq gaplar, bolalarga tushunarsiz so'zlar ham bor. Masalan, jurnalistning quyidagi savolida bolalarga tushunarsiz so'z ishlatilgan: "Talabaning Alisher Navoiy nodirotlari — "Iskandar", "Layli va Majnun" asarlariga murojaati ko'pchilikda hayrat uyg'otgan...". Bu jumlada "nodirot" so'zi noo'rin qo'llangan. Bolalar nashrlari matnlarida ular uchun tushunarli, fahmlashi oson sodda so'z va iboralardan foydalanish kerak. O'smirlarga mo'ljallangan "Yosh kuch" jurnalidagi intervylarni o'qir ekanmiz, ularning matni, tili, uslubi "Dono word", "Bilimdon", "Gulxan" jurnallaridagi intervylardan farq qilishiga guvoh bo'lamiz. Birinchidan, intervyu auditoriyaning yoshi, dunyoqarashi, qiziqishidan kelib chiqib tayyorlanadi. "Yosh kuch"ning 2016-yil 7-sonidagi taniqli kinoaktrisa Jamila G'ofurova bilan suhbatdagi jurnalist tomonidan berilgan savollarda siyqasi chiqqan so'z, iboralarni uchratmaysiz. Deyarli barcha savollar Jamila G'ofurovanning ijodiy faoliyatiga daxldor. Odatda, boshqa OAVda, xususan, matbuot nashrlaridagi suhbatlarda "Rejalarangiz?", "Ustozlaringiz haqida nima deya olasiz?", "Kino yoki teatrga ilk qadamingiz..." kabi shablon savollar ko'p uchraydi. Bunday savollar o'quvchini zeriktiradi, suhbatdosh haqida biror-bir yangilik bermaydi va shu bois deyarli o'qilmaydi ham. Aksincha, J. G'afurovadan olingan intervyu boshqa intervylardan noodatiyligi bilan farq qiladi. Unda jurnalist savollarni tugal fikr tarzida ifodalagan va aktrisa ularga munosib tarzda o'z munosabatini bildirgan: "—Ijodda uchinchi ko'z iborasi ma'lum va mashhur. Ya'ni hech kim ilg'ay olmagan jihatni anglash. Bu pashshada fil yasash degani emas, albatta. Ammo biroz bo'rttirish evaziga yaxshi natijaga erishish mumkin...Rejissyor Zulfiqor Musoqovning "Qovun" filmida ijro etgan obrazim — boshqorong'i kelin ana shu iboraga to'liq mos keladi, deb o'ylayman. Ishonsangiz, film montaji ustida ishlayotganlar meni tanishmagan. Zulfiqor aka: "Jamilaning mana bu qiyofasi, mana bu holati, bunisi..." deya kadrlarni o'z o'rniga joylayotganida, ajablanib: "Qay biri Jamila?" deyishgan..." (Yosh kuch, 2016-yil 7-son).

Jurnalning "Baxt o'zi nimadir" ruknida jurnalist Lobar Qobilova tayyorlagan "Po'lat doda" sarlavhali suhbatini berilgan. "Yosh kuch" jurnalidagi intervylarning o'ziga xosligi shundaki, ularning kirish qismidan keyin respondentning hayoti va faoliyatiga oid qiziqarli ma'lumotlar, faktlar alohida ajratilib beriladi. Fotosuratlar ham sifatli, ular o'z o'rnida joylashtirilgan. Bu ham jurnalning o'ziga xos dizayni hisoblanadi. Bu intervyuda ham jurnalning boshqa sonlaridagi intervylar kabi savollar fakt va fikr tarzida bayon etilgan va shunga mos ravishda respondent javob bergan. Masalan, jurnalist: "Otam dangal, cho'rtkesar odam bo'lgan", deydi. Suhbatdosh esa otasiga o'zining munosabati, fe'l-atvorini bayon qiladi. Lekin intervyuda kamchiliklar ham yo'q emas. Jurnalist tomonidan berilgan savol tarzidagi fikrlarda imloviy, uslubiyl xatolar ham bor. "Hayron qolman-da, turmushning mushti qattiq kezlar

ham ko'ngilga teatr sig'arkan". Bu jumladagi "hayron qolman-da" birikmasida "a" harfi tushib qolgan. Qolaversa, jumla biroz g'alizroq. Ammo intervyuning qiziqarli, mazmunli va odatiy intervyularga o'xshamagani jurnalistning yutug'idir.

Jurnalist suhbatga tayyorgarlik ko'rish jarayonida respondentning hayoti, ijodiy faoliyatini chuqur o'rgangani yaqqol ko'rinib turibdi. Intervyuning o'qishli chiqishi jurnalistning bilimiga, lisoniy-uslubiy malakasiga, nutq madaniyati va odobiga, umuman, uning mahoratiga bog'liq. Buning uchun undan tinmay mehnat qilishi, o'z ustida ishlashi talab etiladi. Fikr-mulohazalarni ifodalashda til vositalari imkoniyatlarini puxta bilish va amalda qo'llay olish eng muhim omildir. Bu, ayniqsa, bolalar nashrlarida intervyu janrida ijod etayotganlar uchun zarur. Chunki to'g'ri va o'rinli tuzilgan savol bolajonlarning nutqiy salohiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi va savolga qarab javob beriladi, mavzu ochiladi. Bunda tahririyatning roli ham katta. Samarali va qiziqarli intervyu yoki suhbatlarni "Yosh kuch" jurnali sahifalarida o'qish mumkin. Jurnalning 2017-yil 2-sonida "Welcome to culture" sarlavhali intervyuda kinossenarist Yolqin To'ychiyevning ijodiy faoliyatiga to'xtalib o'tilgan. Jurnalist Zabarjad Bobojonova savollarida boshqa matbuot nashrlarida uchraydigan qolip (shablon) so'z va iboralardan qochgan. Respondentning har bir javobidan keyin berilgan savollar bir-birini to'ldirib va uyg'unlashib keladi. Intervyu savollari faqat ijodkorning ijodiy faoliyatiga taalluqli:

— *Yolqin To'ychiyev filmlari ramzlarda fikr, xarakterda hayot izlashga undaydi. Uning personajlari emas, asosan kadrlari "tilga kiradi". Shu kungacha sizning ishtirokingizdagi filmlar soni o'ttiztaga yetib qolibdi. Diplom ishi uchun olgan qisqa metrajli "Fevral"dan to keyingi, hamkorlikdagi "Dom dlya rusalok" filmlaringiz misolida Yolqin To'ychiyev qarashlaridagi ulg'ayishni bugun qanday baholaysiz?*

Jurnalning 2017-yilgi 3–4-sonida berilgan yana bir suhbat yuqorida biz tilga olgan intervyudan farq qiladi, sarlavhasi ham oddiy: "Komiljon Otaniyozov". Suhbatdosh musiqashunos olim, mohir pedagog, Urganch davlat universiteti "Musika ta'limi" kafedrası mudiri Botir Rahimov. Retsipiyent tomonidan berilgan savollar ham oddiy, sodda iboralardan tuzilgan. Respondent javoblari ham xalqchil tilda, hikoya tarzida bayon qilingan. Savollar mantiqan bir-biriga uzviy bog'liq. Masalan, — *Hozir ham tor yasaydigan ustalar ko'pmi Xorazmda? degan savolidan so'ng — Xorazm dostonlari ham tor jo'rligida, ochiq ovozda ijro etiladi. Qashqadaryo, Surxondaryo baxshilari esa yopiq ovoz bilan aytadi...* degan savoli berilgan.

Tahrir jarayonida intervyuning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Bu janrning talabiga ko'ra, jurnalist biror kasb egasi bilan muloqotga kirishar ekan, mavzuni yaxshi bilishini namoyish etishi, shu kasbga doir fakt, raqam, holat, natija va muammolar xususida erkin mulohaza yurita olishi kerak. Shundagina suhbat qovushadi, qiziqarli chiqadi. Aks holda, shunchaki savol-javobdan iborat bo'lib qoladi. Yana bir jihat shundaki, agar suhbatdosh jurnalistning tajribasizligini payqab qolsa, suhbat jilovini o'zi qo'liga olib, mavzuning muammoli nuqtalaridan silliqqina o'tib ketadi.

Demak, bolalar nashrlariga biror-bir janrda, xususan, intervyu janrida material tayyorlash jarayonida yosh o'quvchilarning ushbu materialni tushunishi, "hazm" qila olishi e'tiborda tutilishi zarur. Zero, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davom etayotgan tub o'zgarishlardan ommani xabardor qiluvchi OAV o'z faoliyatida ham tub o'zgarishlar, yangilanishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish kerak. Shundagina o'zbek milliy jurnalistikasi, jumladan, bolalar jurnalistikasi jahonning ilg'or jurnalistikasi bilan tenglashadi va zamon bilan hamnafas bo'ladi.

Bolalar nashrlarida hisobot janridagi materiallar ham berib boriladi. Bolalar va o'smirlar gazetasi "Tong yulduzi"da hisobotlarga keng o'rin beriladi. Aksariyat hisobotlarda ommaviy bayramlar, san'at turlariga doir tomoshalar, sport musobaqalari singari yirik, umumahamiyatga molik voqea-hodisalarning asosiy mazmuni, mohiyati, tafsiloti o'z ifodasini topgan. Gazetaning 21-sonida "Frankofon festivali yangi iste'dodlarni kashf etdi!" sarlavhali materiali hisobot janrida yozilgan. Umumiy hisobot turiga kiruvchi bu materialda ommaviy tadbir xronologik tartibda yoritilgan. "Yaqinda Respublikamiz ta'lim muassasalari talaba, o'quvchi-yoshlari o'rtasida ajoyib festival uyushtirildi. Fransiya elchixonasi tomonidan O'zbekiston Yoshlar teatri, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim hamda Madaniyat vazirliklari bilan hamkorlikda tashkil qilingan Talabalar va o'quvchilar frankofon teatr va ashula festivalida jami 27 truppa ishtirok etdi...". Matnda ayonki, hisobotda festival qanday boshlangani, unda kimlar ishtirok etgani, nimalar bo'lgani, kimlar qanday natijalarga erishgani batafsil bayon etilgan.

Hisobotning ichki tuzilishi uning qaysi turda yozilishiga bog'liq, albatta. Gazetaning 2017-yil 31-iyuldagi sonida umumiy hisobot turiga kiruvchi material berilgan. "O'quvchi qalbiga yo'l" sarlavhali materialda "Yosh kitobxonlar" ko'rik-tanlovi yakuniy bosqichi qanday o'tkazilgani batafsil bayon etilgan. Boshqa matbuot nashrlarida beriladigan hisobot janridagi materiallardan farqli o'laroq, bunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziri o'rinbosari Alisher Sa'dullayev, tanlovda ishtirok etgan jamoatchilik vakillari va ustozlarning fikrlari ham berilgan. Hisobot materialda ham janrlar qorishiqligi, ya'ni suhbat elementlari sintezlashganini ko'rish mumkin.

Maqola janri bolalar matbuotida muhim va asosiy o'rinni egallaydigan janr. Ayrim maqolalarda umumahamiyatga molik masalalar ko'tarilsa, tahlil qilinsa, ba'zilarida faqat bitta jihat yoki masala qalamga olinadi. Yoki ba'zi bir maqolalar mazmunida ilmning biror sohasi, yo'nalishi tadqiqi orqali yangiliklar berilsa, boshqasida ana shu yangiliklarning yuzaga kelishi bilan bog'liq ibratli biror-bir harakat, g'oya, fikr targ'ib qilinadi (3, 58).

Bolalar uchun maqolalar voqelikni bolalarga xos tafakkur prizmasidan o'tkazib yoziladi. Shunga ko'ra, fakt va dalillar turli obrazli talqinlar, sodda va xalqchil so'z va iboralar orqali jonli so'zlashuv tilida ifodalanadi. Xususan, "Tong yulduzi" gazetasining 2017-yil 6-fevralda "Navoiy saboqlari" rukni ostida e'lon qilingan folklorshunos olim, filologiya fanlari nomzodi Omonulla Madayevning maqolasi bu fikrimizga yaqqol misol bo'la oladi. Maqola sarlavhasi o'rnida Alisher Navoiyning quyidagi misralari keltirilgan: "Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish ranj ila, aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila". Bu maqolada

adabiyot darsliklarida berilgan Alisher Navoiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlardan tashqari, uning ilm olish, hunar o'rganish bobidagi pand-u nasihatlar, shuningdek, ularning hozirgi zamon bilan hamohangligi xususidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlab keladi. Maqola muallifi o'quvchilarga buni sodda va tushunilishi oson tarzda bayon qilib bergan.

"Tong yulduzi" gazetasining 8-sonida "Mulohaza uchun mavzu" ruknida "She'riyatning tengsiz bo'stoni" sarlavhali maqola berilgan. Maqola lidi muayyan syujet orqali bayon qilingan: "Bir kuni tahririyatimizga qoralamalarini ko'tarib kelgan qizaloqdan "Qaysi shoirlar she'rini yoddan bilasiz?" deya so'raganimda, u hech ikkilanmay: "Men shoirlarning she'riga qiziqmayman, o'zim she'r yozaman", dedi. She'riyatga qiziqishi bo'lmagan kishi qanday qilib she'r yozishi mumkin, degan xayolga bordim". She'riyatga havasmand yosh o'quvchilar, avvalo, shoirlar ijodi bilan tanishishi lozim, ularning she'rlari orqali hayotga, borliqqa munosabati shakllanishi maqolada ta'kidlangan.

"Kompyuter o'ynayotgan bola" sarlavhali maqola bugungi kunda ota-onalar uchun farzand tarbiyasidagi og'riqli nuqtalardan biriga aylangan internet va kompyuter o'yinlarining salbiy oqibatlari, ularni keltirib chiqaruvchi omillar haqida. Muallif Sa'dullo Tursunov mavzuni ochib berishda asosiy urg'uni maqolaning ta'sirchanligiga qaratgan. Materialda janrlar qarishligini ko'rish mumkin, chunonchi unda intervyu elementlari qo'llanilgan. Muallif poytaxtimizning Mirobod tumanidagi 218-umumta'lim maktabi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilrabo Arziqulovning fikrlarini ham keltirgan.

Gazetaning 14-sonida e'lon qilingan "Yashnayotgan yashil shahar" sarlavhali maqola bir necha ming yillik tarixga ega ko'hna Kesh haqida. Shuningdek, unda Shahrisabzdagi Dorus-Tilovat va Dorus-Saodat ansambllarining tarixi haqida so'z boradi. Bu mavzudagi materiallar o'lkamiz o'tmishi haqida ma'lumot berish orqali tariximizga bo'lgan qiziqish va e'tiborning oshishiga sabab bo'ladi.

Maqolaning yozilish uslubi turlicha bo'lishi mumkin. Bunda muallifning tanlagan mavzusi va o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqiladi. Quyidagi bir maqoladan olingan parchada muallifning badiiy-tasviriy vositalardan foydalanilgani kuzatiladi: "Tasavvur qiling, siz futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosisiz. Mamlakatimiz jamoasi futbol bo'yicha o'tkazilayotgan navbatdagi jahon chempionati final bahsida ishtirok etmoqda. Galdagi raqibimiz futbol vatani vakillari bo'lmish ingliz jamoasi...". Biror sohaga oid maqolada o'sha sohaga oid terminlar qo'llaniladi. Bu materialda ham futbol sport turiga oid birikmalar qo'llanilgan. Masalan, futbol, jahon chempionati, maydon markazi, chempionat kubogi kabi. Aynan bolalarga mo'ljallangan bunday materiallarda til vositalarini to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash orqali o'quvchida voqelik haqida aniq tasavvur paydo qilinadi.

"Yosh kuch" jurnalida e'lon qilingan maqolalar ham diqqat sazovordir. Jurnal sahifalarida yoshlar uchun qiziqarli va kerakli mavzularda maqolalar berilgan. Muslimbek Yo'ldoshevning "Ubay aka" sarlavhali maqolasi shunday asarlar sirasidan.

Ma'lumki, o'zbek matbuotida ocherk publitsistikaning yetakchi janrlaridan biri. Xususan, bolalar nashrlarida ham portret ocherki, yo'l ocherki kabi ocherkning muayyan turlarini ko'rish mumkin. Masalan,

“Jajji akademik” jurnalidagi “Yaxshilik zanjiri davom etsin!” sarlavhali materialda Yaponiyaning Nagoya shahrida joylashgan Xiroji shogakko maktabida ikki yil tahsil olgan Imona Abulhasanning kunchiqar mamlakat haqidagi taassurotlari, maktabdagi voqealar qiziqarli tasvirlanadi. “Avtobus bekatlarida soyabonlar ilib qo‘yilganini ko‘rib hayron bo‘lgandim. Keyin bilsam, bu soyabonini uyida unutib qoldirganlar uchun ekan. Shundan keyin, men, akam va opam birgalikda pul yig‘ib soyabon sotib oldik va uni bekatga ilib ketdik. Chunki yaxshilik zanjiri davom etishi kerak-da”. Bu material yo‘l ocherkiga misol bo‘la oladi. Chunki unda muallif o‘zi ko‘rgan-kechirganlarini bayon qilar ekan, kishilar qiyofasini chizishga, voqealar tasvirini berishga intilgan va o‘zi bosh qahramon sifatida namoyon bo‘lgan.

Bolalar nashrlarida reportaj janriga ham keng o‘rin beriladi. Reportajlarda ko‘proq ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy mavzular qalamga olingan. Masalan, “Gulxan” jurnalining 6-sonidagi “Jarang sochar marjonlar” sarlavhali materialda “Marvarid” bolalar teatr studiyasi, u yerdagi iqtidorli, qobiliyatli bolalar faoliyati bilan batafsil yoritilgan. Bu reportajda hisobot va intervyu janrlariga xos jihatlar ham aks etgan.

“...Muslima esa tug‘ma aktrisa, matn esidan chiqib qolsa, ichidan to‘qib ketaveradi. Faqat talaffuzda ozgina kamchiliklar bor, u bilan birga nutq mashqlarini bajaramiz, – deydi Gulchehra opa”.

Ma‘lumki, bolalar jurnalistikasining vazifalari: 1) tarbiya; 2) ta‘lim; 3) bolaning ko‘ngil ochishidan iborat. K. A. Ryabuxina tomonidan bolalar matbuotining tarbiyaviy, axborot, kognitiv, ta‘limiy, muloqot, rekreativ va ijtimoiylashuv kabi asosiy funksiyalari ajratilgan (17, 6). U bolalar submadaniyatining xususiyatlarini va bolalar auditoriyasining matbuotni idrok etish xususiyatlarini belgilaydi, xususan, “bolalar davriy nashrlarining kontenti optimistik xarakterga ega bo‘lishi kerak, nashrlarning qahramonlari esa, albatta, qahramonlar bo‘lishi kerak, ya‘ni yaxshilik tomonida bo‘lishi kerak” (20, 23). Yosh avlodning o‘ziga xos xususiyatlari bolalar jurnalistikasining vazifalarini, ommaviy axborot vositalarida dalillarni tanlab olishni va jurnalist tomonidan ularni baholash va sharhlash xususiyatlarini belgilaydi. Shunday qilib, hatto bolalarning gazeta va jurnallarida, muomala, munosabat, odamlarning xatti-harakatlarini aks ettiruvchi, instruktorlik matnlari nashr etilgan o‘yinlar o‘yin texnikasi (savollar, krossvordlar, jumboq va boshqalar) bilan birga keladi.

Bolalar jurnalistikasi, jumladan, bolalar matbuotining vazifasi bolalar hayoti va muammolarini aniq va haqqoniy, ularga ma‘naviy zarar yetkazmasdan tasvirlashdir. Shu bilan birga, jurnalist yozayotgan material, shubhasiz, ish uslubi va uning natijalari materialni qanday tartibni bajarishiga bog‘liq. Ko‘pincha jurnalistlar bolalar haqida emas, balki qanday qilib yaxshi reportaj yozish haqida o‘ylashadi. Jurnalistlar doimiy ravishda yangi, g‘ayrioddiy, umume’tirof etilgan nuqtayi nazardan farq qiladigan narsalarni qidiradi. Bolalar bilan ishlash tajribasi shuni ko‘rsatadiki, noodatiy narsalarni ular orasida topish mumkin. Bolalar bilan ko‘p vaqt birga bo‘lish, ular bilan suhbatlashish va ularning so‘zlarini tinglash orqali jurnalist mutlaqo kutilmagan ajoyib narsani topishi mumkin. Bolalar bilan ochiq va samimiy muloqot qilish oson emas.

Ularning dunyoga qarashlari nisbatan yangicha va unda muayyan tartib mavjud.

Bolalar uchun material tanlash va saralashda lingvistik vositalar va muayyan kompozitsiyasi inobatga olinadi.

Albatta, bolalar uchun yozilgan har bir mediamatn axborotning qanchalik aniqligi, loʻndaligi va bayonning soddaligi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan informatsion janrlar — xabar, yangilik va korrespondensiyaga doir materiallarda soddalik va qisqalik tamoyiliga amal qilish darkor.

Bolalar nashrlaridan “Tong yulduzi”, “Klass”, “Gʻuncha”, “Gulxan” kabi gazeta va jurnallar sahifalarida turli janrlardagi materiallarni koʻrish mumkin. Xususan, “Tong yulduzi” gazetasida ham turli mavzu va ruknlarda kengaytirilgan xabar, maqola, suhbat kabi janrlardagi materiallar berib boriladi. Gazetadagi aksariyat materiallarning muallifi maktab oʻquvchilari, pedagoglardir.

Gazetaning birinchi sahifasida lavha janriga oid materiallar muntazam berib boriladi. 2020-yil 13-iyuldagi soni birinchi sahifasida berilgan “Buvijonim bilan zerikmaymiz” sarlavhali material lavha janriga oid. Bu janrdagi materiallar doimiy ravishda gazetaning birinchi sahifasida fotosuratlar bilan birga berib boriladi. Gazeta sahifalarini kuzatar ekanmiz, aynan “Tong yulduzi” gazetasi, asosan, bolalar va oʻsmirlarga oid nashr boʻlgani bois unda rasmiy xabarlar deyarli uchramaydi.

Gazetaning 2020-yil 10-avgustdagi sonida “Bir million oʻzbek dasturchilari” tanlovining olti nafar gʻolibidan toʻrt nafari maktab oʻquvchilari” sarlavhali xabar berilgan. Xabarda bir shaxs misolida tadbirning mohiyati, qayerda, qachon boʻlgani bayon etilgan. Aniqrogʻi, unda ishtirok etgan maktab oʻquvchisining tanlovda gʻolib boʻlgani bahonasida tanlovning qachon, qayerda va kimlar tomonidan oʻtkazilgani yoritilgan.

“Asadbek Roʻziyev poytaxtimizning Mirzo Ulugʻbek tumanidagi 225-umumtaʼlim maktabining 9-sinfini aʼlo baholarga tamomladi. Uning qiziqishlari dasturlash, robototexnika hamda origami hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 tashabbus boʻyicha u turli toʻgaraklarda, sport musobaqalarida, dasturlash kurslarida qatnashib, koʻplab yutuqlarni qoʻlga kiritmoqda. Xususan, 2019–2020-oʻquv yili mobaynida koʻplab nufuzli tanlovlarda gʻolib boʻlishga erishdi. Yaqinda XTB, AKT vazirligi, IT Park hamda Dubai Future Foundation bilan hamkorlikda “One Million Uzbek Coders” loyihasi doirasida tanlov tashkil qilingandi. Bu tanlovda 18 yoshgacha boʻlgan oʻquvchilar oʻrtasida Asadbek faxrli oʻrin sohibi boʻldi va 500 dollar bilan mukofotlandi” (Tong yulduzi, 2020-yil 10-avgust).

Bulardan tashqari, bolalar nashrlarida taqriz, ocherk, korrespondensiya kabi janr namunalari ham bor. Ammo bular janr nuqtayi nazaridan alohida tadqiqot obyekti boʻlishini koʻzda tutib, ularga alohida toʻxtalishni lozim topmadik. Aslida bu janrlarda ham bolalar va yoshlarning dunyoqarashi, qiziqishlari eʼtiborga olingan holda, ularning olamiga daxldor hodisalar yoritiladi.

Umuman, bolalar matbuotida chop etilgan materiallardagi janrlar xilma-xil. Kuzatuvimiz jarayonida maqola, suhbat, intervyu, xat, lavha singari janrlardagi materiallar koʻproq berilganligiga amin boʻldik.

Xulosa

Muallif o'z mushtariysi bilan faqat so'zlar vositasida muloqot qilar ekan, aytmoqchi bo'lgan fikrini, undagi holatini, kayfiyatini aynan shu so'zlar bilan chiqarib beradi. Maqollar bu jarayonda nihoyatda qo'l keladi. Aynan bolalar nashrlarida maqollardan unumli va samarali foydalanish o'quvchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotimiz davomida bolalarga mo'ljallangan gazeta va jurnal materiallarida maqol, matal va iboralarning qo'llanilishi tadqiq qilindi. "Dono word" hamda "Jajji akademik" jurnallarining yillik soni materiallarida maqollardan juda kam foydalanilgani kuzatildi. "Tong yulduzi" gazetasi maqollardan unumli va o'z o'rnida foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Tahlillar natijasi bolalarga oid gazeta va jurnallarda maqollardan foydalanish yetarli darajada emasligini ko'rsatdi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, bolalar jurnalistikasi o'z oldiga aniq vazifalarni qo'yishi kerak va shu vazifalar o'sib ulg'ayayotgan avlod uchun katta ijtimoiy ahamiyatga (badiiy, axloqiy va estetik ta'lim) ega bo'lishi dardkor. Ushbu maqsadlar bolalar dunyoqarashining o'ziga xosligini ifodalashda matnning janri, uslubi va shaklini belgilaydi. Har bir janrning vazifasi va imkoniyatlarini bilish hamda ularga ijodiy yondashish ommaviy kommunikatsiyaning samaradorligini ta'minlashga, kontekstual ta'sir qilish jarayoni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduazizova N. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. — Toshkent: Akademiya, 2008. — 192 b.
2. Abdullayeva N.B. Zamonaviy o'zbek matbuoti dizaynining estetik xususiyatlari. Falsafa fan.nom. diss... — T., 2010. — 139 b.
3. Barakayev R. XX asr boshlaridagi o'zbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi: filol.fan.nomz.diss... — T., 1994. — 166 b.
4. Ворошилов В.В. Журналистика. Базовый курс / В.В.Ворошилов. — СПб.: Михайлова В.А., 2005. — 446 с.
5. David Abrahamson, Marcia R. Prior-Miller. The Routledge Handbook of Magazine Research. — USA.: Routledge, 2017. — 670 p.
6. Do'stqorayev B. O'zbekiston jurnalistikasi tarixi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2009. — 380 b.
7. Фролова С. В. Российские периодические издания для детей: обзор и классификация / С. В. Фролова // — Начальная школа. — 2003. — № 1. — С. 108-113.
8. Jamilova B. O'zbek bolalar publitsistikasi va uning rivojlanish tamoyillari: Filol. fan. nomz. diss... — Toshkent: 2004. — 280 b.
9. Жукова Д.А. Влияние детской журналистики и СМИ на групповое и индивидуальное сознание детей. Автореф. дисс.канд. филос. наук. — Краснодар, Краснодарский университет МВД России, 2012. — 23. — URL: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005047152>
10. Jamilova B. O'zbek bolalar publitsistikasi va uning rivojlanish tamoyillari: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. — Toshkent: 2004. — 23 b.
11. Judith S. Children's Books and Magazines: A Market Study. White Plains, — NY: Knowledge Industry Publications, Inc., 1979. — 236 p.

12. Казак М. Ю. Специфика современного медиатекста [Электронный ресурс] // Современный дискурс-анализ. — 2012. — № 6. — С. 30–41. — URL: <http://www.discourseanalysis.org/ada6.pdf>
13. Когатько А. Г. Отечественное телевидение для детской аудитории: теория, история, перспективная модель функционирования. Автореферат дисс. канд. филол. наук. — М., 2007. — 249 с.
14. Mirzayeva N.A. Bolalar jurnalistikasining kommunikativ va kontekstual xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi. — Toshkent: 2023. — 156 b.
15. Nazira Qurbon. Tahliliy jurnalistika. — Toshkent: Bayoz, 2019. — 58 b.
16. Qosimova N., Toshpo'latova N. O'zbekiston OAVda bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari. Oliy o'quv yurtining jurnalistika fakultetlari talabalari uchun o'quv-amaliy qo'llanma. — T., 2014. — 212 b.
17. Рябухина К.А. Сравнительный анализ отечественной детской периодики: аксиологический ракурс: выпускная квалификационная работа: 42.04.02 / К.А. Рябухина. — Белгород, 2018. — 99 с.
18. Ситникова Е. В. Иллюстрация как визуальный компонент контента детских изданий. — URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/illyustratsiya-kak-vizualnyy-komponent-kontenta-detskih-izdaniy>
19. Suyumov A., Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. — Toshkent: O'qituvchi, 1995. — 224 b.
20. Светловская Н.Н. Детская книга и детское чтение. — М.: Академия, 1999. — 243 с.
21. Смирнова Е.О. Детская психология. Учебник. — Владивосток: Владос, 2008. — 366 с.
22. To'xtayeva N. Istiqlol davri o'zbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD)diss. avtoref. — Toshkent: 2019. — 14 b.
23. Turdiyeva K. Hozirgi o'zbek bolalar she'riyatida ma'naviyat masalasi: Filol.fan.nomz.diss... — Toshkent: 1994. — 148 b.
24. Yunusov M.A. Mustaqillik davrida O'zbekistonda bolalar jurnalistikasining taraqqiyoti: yutuqlar, muammolar va yechimlar (bosma nashrlar misolida). Filol. fan bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent: 2020. — 128 b.
25. Зылевич Д. П. Редакторская подготовка изданий для детей: учеб. пособие для студентов специальности «Издательское дело» / Д. П. Зылевич. — Минск: БГТУ, 2012. — 210 с.
26. Sharon R. Mazarrella. 20 Questions about Youth & the Media. — U.S.A. New York, 2007. — 316 p.
27. Чуков П. И. Специализированные газеты как тип издания: дис... канд. филол. наук: 10.01.10 / Чуков Павел Игоревич. — Ростов на Дону, 2004. — 26 с.
28. Чуковский К. Матерям о детских журналах / К. Чуковский. — СПб.: Наука, 1911. — 103 с.
29. <https://studfile.net/preview/7814337/page:47/>

References

1. Abduazizova N., *Uzbekiston jurnalistikasi tarixi* (History of Journalism of Uzbekistan), Tashkent: Akademiya, 2008, 192 p.
2. Abdullayeva N.B., *Zamonaviy uzbek matbuoti dizaynining estetik xususiyatlari. Falsafa fan.nom. diss...* (Aesthetic Characteristics of the Design of the Modern Uzbek press, candidate's thesis), Tashkent, 2010, 139 p.
3. Barakayev R., *XX asr boshlaridagi uzbek bolalar adabiyoti va Abdulla Avloniy ijodi: filol.fan.nomz.diss...* (Uzbek Children's Literature of the Early 20th Century and the Work of Abdullah Avlani, candidate's thesis), Tashkent, 1994, 166 p.
4. Voroshilov V.V., *Zhurnalistika. Bazoviy kurs* (Journalism. Basic Course), Saint Peterburg: Mikhailova V.A., 2005, 446 p.
5. David Abrahamson, Marcia R. Prior-Miller. *The Routledge Handbook of Magazine Research*, USA.: Routledge, 2017, 670 p.
6. Dustkorayev B. *Uzbekiston jurnalistikasi tarixi* (History of Journalism of Uzbekistan), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2009, 380 p.
7. Frolova S. V., *Nachal'naya shkola* 2003, No. 1, pp. 108–113.
8. Jamilova B. *Uzbek bolalar publitsistikasi va uning rivojlanish tamoyillari: Filol. fan. nomz. diss...* (Uzbek children's publicism and the principles of its development), Tashkent: 2004, 280 p.
9. Zhukova D.A. *Vliyanie detskoi zhurnalistiki i SMI na gruppovoe i individual'noe soznanie detei. Avtoref. diss.kand. filos. nauk* (The Influence of Children's Journalism and the Media on The Group and Individual Consciousness of Children. Extended abstract of candidate's thesis), Krasnodar, Krasnodarskii universitet MVD Rossii, 2012, 23, available at: <https://search.rsl.ru/ru/record/01005047152>
10. Jamilova B. *Uzbek bolalar publitsistikasi va uning rivojlanish tamoyillari: Filol. fan. nomz. diss. Avtoreferat* (Uzbek Children's Publicism and the Principles of its Development. Extended abstract of candidate's thesis), Tashkent: 2004, 23 p.
11. Judith S. *Children's Books and Magazines: A Market Study*, White Plains, New York: Knowledge Industry Publications, 1979, 236 p.
12. Kazak M. Yu. *Spetsifika sovremennogo mediateksta. Sovremenniy diskurs-analiz* (The Specifics of the Modern Media Text Modern Discourse Analysis), 2012, No. 6, pp. 30–41, available at: <http://www.discourseanalysis.org/ada6.pdf>
13. Kogat'ko A. G., *Otechestvennoe televidenie dlya detskoi auditorii: teoriya, istoriya, perspektivnaya model' funktsionirovaniya. Avtoreferat diss. kand. filol. nauk* (Domestic television for children's audience: theory, history, a promising model of functioning abstract dissertation of the Candidate of Philology), Moscow, 2007, 249 p.
14. Mirzayeva N.A., *Bolalar jurnalistikasining kommunikativ va kontekstual xususiyatlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasi* (Communicative and contextual features of children's journalism. Dissertation for the degree of Doctor of philosophy in philological Science), Tashkent: 2023, 156 p.

15. Nazira Qurbon., *Tahliliy jurnalistika* (), Tashkent: Bayoz, 2019, 58 p.
16. Kosimova N., Toshpulatova N. *Uzbekiston OAVda bolalar mavzusini yoritishning nazariy va amaliy asoslari* (Theoretical and Practical Basics of Covering the Topic of Children in the Media of Uzbekistan), Tashkent, 2014, 212 p.
17. Ryabukhina K.A., *Sravnitel'nyi analiz otechestvennoi detskoi periodiki* (Comparative Analysis of Russian Children's Periodicals), Belgorod, 2018, 99 p.
18. Sitnikova E. V. *Illyustratsiya kak vizual'nyi komponent kontenta detskikh izdaniy* (Illustration as a Visual Component of Children's Content), available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/illyustratsiya-kak-vizualnyy-komponent-kontenta-detskikh-izdaniy>
19. Suyumov A., Jumaboyev M., *Bolalar adabiyoti* (Children's Literature), Tashkent: Uqituvchi, 1995, 224 p.
20. Svetlovskaya N.N., *Detskaya kniga i detskoe chtenie* (Children's Book and Children's Reading), Moscow: Akademiya, 1999, 243 p.
21. Smirnova E.O., *Detskaya psikhologiya* (Child Psychology), Vladivostok: Vlados, 2008, 366 p.
22. Tuxtayeva N., *Istiqlol davri uzbek bolalar she'riyatining yetakchi xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD)diss. avtoref.* (Leading Features of Uzbek Children's Poetry of the Independence Period), Tashkent: 2019, 14 p.
23. Turdiyeva K., *Hozirgi uzbek bolalar she'riyatida ma'naviyat masalasi: Filol.fan.nomz.diss...* (The issue of Spirituality in Current Uzbek Children's Poetry. candidate's thesis), Tashkent: 1994, 148 p.
24. Yunusov M.A., *Mustaqillik davrida O'zbekistonda bolalar jurnalistikasining taraqqiyoti: yutuqlar, muammolar va yechimlar Filol. fan bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss.* (Development of Children's Journalism in Uzbekistan During Independence: Achievements, Problems and Solutions. Doctor's thesis), Tashkent: 2020, 128 p.
25. Zylevich D. P., *Redaktorskaya podgotovka izdaniy dlya detei: ucheb. posobie dlya studentov spetsial'nosti* (Editorial Preparation of Publications for Children: Studies. a Manual for Students), Minsk: BGTU, 2012, 210 p.
26. Sharon R. Mazzarella. *20 Questions about Youth & the Media*, NewYork, 2007, 316 p.
27. Chukov P. I., *Spetsializirovannye gazety kak tip izdaniya: dis... kand. filol. Nauk* (Specialized Newspapers as a Type of Publication), Rostov na Donu, 2004, 26 p.
28. Chukovskii K., *Materyam o detskikh zhurnalakh* (Mothers about Children's Magazines), Saint Peterburg: Nauka, 1911, 103 p.
29. <https://studfile.net/preview/7814337/page/47/>